



FARZANDLARIMIZ-KELAJAGIMIZ POYDEVORI

Bahromova Shohista Mamatqulovna

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani MMTBga qarashli 37-umumiy o'rta ta'lim mактабning amaliyotchi psixologи

Annotasiya: Ushbu maqola farzand tarbiyasi va unda ota-onaning o'rni, ma'sulyiyati hamda vazifa va burchlari masalalariga bag'ishlanadi. Shuningdek ushbu maqolada farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyat, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayon ekanligi ta'kidlangan. Shu boisdan bu kichik tadqiqot tarbiyachilar, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Oila, jamiyat, ota-onsa, farzand, burch, tarbiya, xulq-atvor, ma'naviy yetuklik, sog'lom avlod, psixologiya.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bu – oiladir». Bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug' kelajagini ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog'lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Bolalar tarbiasiga nafaqat oila, ta'lim-tarbiya muassasalari balki mahalla ham ma'suldir. Chunki, farzand tarbiasi ko'p omillarga, avvalo, axloqiy-m'naviy muhitga ham bog'liq. Ta'lim-tarbiya muassasalari bilan oila hamkorligi bunda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda farzandlarimizni jismonan va ma'nан barkamol etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Mantiqan bir-birini to'ldiruvchi



“Oila yili”, “Sog‘lom avlod yili”, “Sihat-salomatlik yili”, “Ijtimoiy himoya yili”, “Yoshlar yili” va “Sog‘lom bola yili”da amalgalashirilgan barcha ishlar hamda yoshlar tarbiyasi va ularning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar izchil davlat siyosatining amaliy ifodasi hisoblanadi.



Bugungi kunda har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish – zamon talabi ekanligi oydek ravshandir. Chunki mustaqil vatanimizning kelajagi yoshlar qo‘lidadir. Farzand tarbiyasida azaldan ilm va tajribaga suyanib kelinganligini hamma yaxshi biladi. Ota-bobolarimiz bola xulqi buzilishiga ota-onalarning farzand tarbiyasiga befarq munosabatda bo‘lishi ekanligini ta’kidlab o‘tganlar. Shunday holatlar sodir bo‘lmasligi uchun ota-onalar oldidagi javobgarlikni yanada oshirish lozim. Shu bilan birga bolalarni zarur va foydali mashg‘ulotlar bilan band qilishi kerakligi, ularni bekor qoldirmaslik, uyda munosib tarbiya berilmasa, u ko‘chaga intilishi va o‘zi bilmagan holda boshqa “dunyo” domiga tushib qolishini uqtiradilar. Oddiy misol tariqasida bugungi kunda ota-onasi chet elga ishga ketgan yoki ota-onasi bor bo‘lsa-da, farzand tarbiyasiga befarq, loqayd



bo‘lganligi sababli turli jinoyat yo‘llariga kirib ketayotgan yoshlarni ko‘rish achinarli holdir.

Haqiqatan ham oldimizda turgan eng ulug‘ maqsadimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagini ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O‘zbekistonning kelgusida jahon hamjamiyatida qanday o‘rin egallashi ham – bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o‘sib kelayotgan bolalarimiz qanday insonlar bo‘lib yetishishiga bog‘liqdir. Shu bois ham bola tarbiyasi hayotiy zaruratdir.



Ota-onaning farzand tarbiyasidagi burchlaridan biri uni yoshligidan boshlab ilm olishga o‘rgatish, ulg‘aygan sari biror o‘ziga munosib kasbu hunar tanlashga yo‘l ko‘rsatib borishlaridir. Abdulla Avloniy aytganidek: “Hushyor va ziyrak kishilar kuch va quvvatlari bor vaqtida keladurgan zamonlarini tushunib, pul va mollarini o‘rinsiz joylarga, to‘y va ma’rakalarga haddan ortiqcha isrof qilmaslar, o‘zlarining rohati, bola-chaqalarining saodati uchun kerak bo‘ladurgan yer va bog‘larini sotmaslar, zamonaga muvofiq kishi qilmak uchun bolalarini o‘qitmak va tarbiya qilmak to‘g‘risida aqchalarini aslo qizg‘anmaslar”.



Sharq mutafakkirlari ham bolaning oiladagi tarbiyasi xususida o‘z asarlarida juda ko‘p to‘xtalib o‘tganlar. Jumladan, buyuk alloma va mutafakkir Abu Ali ibn Sino o‘zining “Donishnoma” asarida bola tarbiyasi uchun avvalo ota-onamas’ulligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga alloma o‘z asarida ota-onaning ilmli, fozil va dunyoqarashi keng bo‘lishini alohida uqtirib, farzand tarbiyasidan mas’uliyatliroq ish yo‘qligini ochib beradi. Ulug‘ mutafakkir Kaykovus ham o‘zining “Qobusnoma” asarida farzandning aql egasi bo‘lishini hamma narsadan ulug‘ deb bilib, shunday nasihat qilgan edi: “Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqldan boy bo‘lmoqqa harakat qil, chunki mol ila boy bo‘lmoqdan, aql ila boy bo‘lmoq yaxshiroqdir. Aql ila mol jam etsa bo‘lur, ammo mol ila aql o‘rganib bo‘lmas. Bilki, aql bir qimmatbaho narsaki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas va suvda oqmas”.

Mehr-muhabbat berishda ham me’yorni saqlay bilish kerak. bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to‘g‘ri-noto‘g‘ri xatti-harakatlarini ma’qullash yoki xatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo‘lib o‘sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo‘yadi, mehr ko‘rsatish esa uni yanada faol bo‘lishga undaydi. Erka o‘sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko‘zlaydigan, ma’suliyatsiz bo‘lib voyaga yetadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo‘lib yetishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir. Abu Ali ibn Sino yosh bolani yaxshi axloqli, jismonan sog‘lom qilib kamol toptirishda shaxsiy namuna bo‘lish usulini ko‘p uqtiradi: “Bola tarbiyasida, eng avvalo, oila hayotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Chunki oilada katta yoki kichik narsa bo‘lmaydi. Hammasi, hatto eng oddiy bo‘lib ko‘rinadigan kundalik munosabatlar ham bolaga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, rostgo‘ylik, samimiylilik, sadoqatlilik va shirinsuxan bo‘lish bola kamolotidagi muhim hayotiy vositalardan biridir”.



Bolalik chog‘ida farzandning qalbi o‘ta yumshoq va ta’sirga beriluvchan bo‘ladi. Shu bois diniy ta’limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o‘tkazishga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko‘ngli nozik bo‘lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko‘rsatishga chaqiriladi. Diniy ta’limotlarda otaona o‘z farzandlariga ta’lim-tarbiya berishi ham dolzarb vazifalardan deb qaraladi. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): “Farzandlaringizga ta’lim bering, chunki ular sizniki bo‘lmagan vaqt uchun tug‘ilganlar”, deb har bir ota-onani bolaning o‘z zamonasi ilm-fani, ta’limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar.

Bola tarbiyasining eng muhim jihatni, bu ota-onaning sabr-toqatli, xotirjamligi va hamjihatligidadir. Ammo oila notinch bo‘lsa, bola na bog‘chada, na maktabda va na tashqi hayotda o‘zini yurish-turishi-yu, idrokiga javob bera oladi. Bunday muhitda o‘sgan bolaning asabi toliqib, serjahl bo‘lib qoladi va u voyaga yetgandan so‘ng o‘zboshimchalik bilan g‘ayritabiiy hamda g‘ayriqonuniy ishlar qilishgacha borib yetadi.

Olimlarning fikriga ko‘ra ota-onalarning oiladagi mas’uliyatini quyidagicha belgilash mumkin:



- bolaga sog‘lom turmush tarzi, ilk huquqiy, iqtisodiy bilimlarni berish, axloq-odob me’yorlariga va tibbiy-gigienik talablarga rioya qilishni uqtirib borish;
- qiziqishlariga qarab bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlashni o‘rgatish;
- sport bilan shug‘ullantirish, turli harakatli o‘yinlar, mashqlar orqali bolani chiniqtirish, uni ekologik va estetik jihatdan tarbiyalash;
- bolalarning jinsini, ya’ni o‘g‘il yoki qiz bolaligiga qarab tarbiyaga xos alohida xususiyatlariga e’tibor qaratish, suhbatlar tashkil etish;
- dunyoviy va diniy bilimlarni egallashga jiddiy e’tibor berish hamda bolalardagi vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘stirish maqsadga muvofiqdir.

Farzandni qanday bo‘lsa shundayligicha, ya’ni o‘zining alohida xususiyatlari, odatlari bilan qabul qilinishi bola shaxsining takrorlanmasligini, o‘ziga xosligini tushunish ota-onaga sabr va mas’uliyatni yuklaydi. Farzand ota-ona ongida ular istagandek mukammal shaxs bo‘lmasligi mumkin, lekin ularning dunyoqarashini rivojlantirish, kamchiliklarini, hissiyotlarini, har bir bolaning o‘ziga xosligini, tabiatan berilgan iqtidorini sezib tarbiyalash ota-onaga yuklanadigan vazifadir. Bunda oiladagi keksalarimiz, ya’ni buva va buvilarning ham farzand tarbiyasida katta hissasi bo‘ladi.

Oiladagi bolaning rivojlanishida, o‘ziga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanishida, atrofidagilarini hurmat qilish, mehr-muhabbat ko‘rsatish va birdamlikda harakat qilishga o‘rgatishda ularning o‘rni beqiyosdir. Ota-ona, buva-buvilar o‘z hayot faoliyatlarida uchraydigan qiyinchiliklar, yo‘l qo‘ygan xatolarni to‘g‘ri talqin qilib, ularda o‘ziga bo‘lgan ishonch, mehnatsevarlik va sabr-toqat hissini shakllantiradilar. Ota-ona o‘z bolasining xato va kamchiliklarini yuziga solishdan, boshqalarga namuna qilib ko‘rsatishdan qochishi kerak. Shunda bolada kelajakka bo‘lgan ishonch va intilishlarni ta’minlaydi. Bolaga “Seni bugungi ishing yaxshi, ertaga bundan ham yaxshi bo‘ladi” – degan fikrni bildirib turish yaxshi



natijalar beradi. Tarbiyaning bu yo‘li bolaning ruhiy va jismoniy salomatligini mustahkamlaydi, oldiga qo‘ygan maqsadi yo‘lida sabot bilan harakat qilishini ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida, Ma’naviy immunitetli, o‘zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-onasiga, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Insonlarning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosini zaharlashga qaratilgani turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgani bugungi kunda o‘zining kimligini, kimlarning vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi. Farzanlarimizga shunday tarbiya beraylik, ular o‘z otabobolariga, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’nalariga sodiq bo‘lib kamol topishsin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbazarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 472-sonli qarori.

2. Мирзиёев М.М.–“Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган

энг олий баҳодир. - Т: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. 143-144 б

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 iyuldaggi “O’quvchilarni psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 577-sonli qarori.